


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**



**06.01.08 – O‘SIMLIKSHUNOSLIK IXTISOSLIGI BO‘YICHA TAYANCH
DOKTORANTURAGA KIRISH SINOV LARI UCHUN MUTAXASSISLIK
FANLARIDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Samarqand – 2024

Annotatsiya:

Dastur 06.01.08 – O‘simlikshunoslik ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga 70810903 – Organik dehqonchilik va oziq-ovqat xavfsizligi, 70811101 – Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi, 70810501 – O‘simliklar himoyasi va karantini, 70510101 – Biologiya ta‘lim yo‘nalishi uchun tasdiqlangan o‘quv rejasidagi fanlar o‘quv dasturi asosida tuzildi.

Tuzuvchilar:

| | | |
|------------------------|---|---|
| Sh.T.Xoliqulov | – | SamDU, Tuproqshunoslik va agrotexnologiyalar kafedrası mudiri, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor |
| M.K.Abduraximov | – | SamDU, Tuproqshunoslik va agrotexnologiyalar kafedrası professori, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori |
| T.Q.Ortiqov | – | SamDU, Tuproqshunoslik va agrotexnologiyalar kafedrası dotsenti |
| T.G‘oziyev | – | SamDU, Tuproqshunoslik va agrotexnologiyalar kafedrası dotsenti |

Dastur Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi institutining 2024-yil 30-avgustdagi 1-sonli Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

Ushbu dastur dala ekinlarining ahamiyati, tarqalishi, kelib chiqishi, ekin maydoni, hosildorligi, sistematikasi, morfologiyasi, biologiyasi, rivojlanish davrlari hamda yetishtirish texnologiyasi kabi bo'limlarni o'z ichiga olgan. Fanning rivojlanishi, istiqboli va respublikamizdagi iqtisodiy islohatlar bilan bog'liqligi, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda fanning ahamiyatini qamraydi.

06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihonlarini topshiruvchilarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

Fan bo'yicha tayanch doktoranturaga 06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligiga kirish imtihonlarini topshiruvchilar:

– dala ekinlarining biologiyasini shakllanish sharoitini, ekinlarni fotosintetik faoliyatini;

– dala ekinlarining intensiv usulda yetishtirish texnologiyalarini ***bilishi kerak;***

– tayanch doktorantlar dala tajribalarini olib borishda dala ekinlarini yetishtirishda muqobil navni tanlash;

– o'tmishdosh ekinlarni tanlash; yerni ekish uchun tayyorlash;

– mineral o'g'itlarni ekinlar uchun tanlash;

– tumanlashtirilgan ekin navlarini;

– dala ekinlarini hosilini aniqlash;

– ekinlarni sug'orish usullar va me'yorini aniqlash, qishloq xo'jalik mashinalaridan va gerbisidlardan foydalanish va qo'llay olish, hamda hosilni yig'ishtirib olish yuzasidan ***ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.***

– rivojlanishi bo'yicha ekinlarni holatiga baho berish; muqobil navni tanlashni; o'tmishdosh ekinlarni tanlashni; yerni ekish uchun tayyorlash; mineral o'g'itlarni ekinlar uchun tanlashni; tumanlashtirilgan ekin navlarini; dala ekinlarini hosilini aniqlash; ekinlarni sug'orish usullarini va me'yorini aniqlashni, qishloq xo'jalik mashinalaridan va gerbisidlardan foydalanish bo'yicha texnologik kartani ishlab chiqish ***malakalariga ega bo'lishi kerak***

Asosiy qism

O'simlikshunoslik fanining xalq xo'jaligidagi ahamiyati

O'simlikshunoslik fanining qishloq xo'jaligida tutgan o'rni, boshqa yo'nalishlar bilan bog'liqligi, asosiy tarmog'i bo'lib aholi uchun oziq-ovqat mahsuloti, chorva uchun yem-xashak, yengil sanoatga hom ashyo yetkazib berishi.

Dala ekinlarining ahamiyati, guruhleri

Dala ekinlari orasida insonga zarur bo'lgan mahsulotni yetishtirish uchun har xil ekinlar ekilmoqda. Ekinlarning biologik xususiyatini kelib chiqishi, tuproq - iqlim sharoiti bilan bog'liqligi, N.I.Vavilov va boshqa olimlar tomonidan

aniqlangan 12 ta kelib chiqish markazlari, shuningdek bu o'simliklarni guruhlarga bo'linish.

Donli ekinlarning ahamiyati, biologiyasi, yetishtirish texnologiyasi

Don ekinlarining umumiy tavsifi, ahamiyati, kelib chiqish tarixi, biologiyasi, uchta biologik guruhga bo'linishi (haqiqiy, tariqsimon va don-dukkakli ekinlar), sistematikasi, avlodlar, turlarining asosiy belgilari, vakillari.

Bug'doy – ahamiyati, biologiyasi yetishtirish texnologiyasi

Bug'doy ahamiyati, tarixi, ekin maydoni, hosildorligi. Sistematikasi, biologik xususiyati, rivojlanish davrlari, tashqi muhitga bo'lgan talabi. Yetishtirish texnologiyasi – otmishdosh, ekish texnologiyasi, o'g'itlash, sug'orish, hosilni yig'ish.

Makkajo'xori – ahamiyati, biologiyasi yetishtirish texnologiyasi

Makkajo'xori – ahamiyati, tarixi, ekin maydoni, hosildorligi. Sistematikasi, biologik xususiyati, rivojlanish davrlari, tashqi muhitga bo'lgan talabi. Yetishtirish texnologiyasi-o'tmishdosh, yerni ekishga tayyorlash, parvarishlash, hosilni yigish.

Sholi – ahamiyati, biologiyasi yetishtirish texnologiyasi

Sholi – ahamiyati, tarixi, ekin maydoni, hosildorligi. Sistematikasi, biologik xususiyati, rivojlanish davrlari, tashqi muhitga bo'lgan talabi. Dalani ekishga tayyorlash, suv rejimi, ekish, parvarishlash, hosilni yigish.

Don-dukkakli ekinlar – ahamiyati, biologiyasi

Don – dukkakli ekinlarning mohiyati, oqsil muammosini hal qilishdagi o'rni, tarkibi, asosiy vakillari, ekin maydoni, hosildorligi. Umumiy biologiyasi.

No'xat va soyani ahamiyati, biologiyasi, yetishtirish texnologiyasi

No'xat va soyaning ahamiyati, tarixi, ekin maydoni, hosildorligi. Sistematikasi, biologik xususiyati. yetishtirish texnologiyasi – o'tmishdosh, yerni ekishga tayyorlash, ekish, parvarishlash, hosilni yig'ish.

Kartoshka – ahamiyati, biologiyasi yetishtirish texnologiyasi

Tugunakmevalilar – mohiyati, tarkibi, kimyoviy tarkibi, tarqalishi. Kartoshka xalq xo'jaligidagi ahamiyati, tarixi, ekin maydoni, hosildorligi. Sistematikasi, biologik xususiyati, rivojlanish davrlari, tashqi muhitga bo'lgan talabi. Ekiladigan asosiy navlari. Ertagi va kechki kartoshkani yetishtirish texnologiyasi.

Qand lavlagi – ahamiyati, biologiyasi yetishtirish texnologiyasi

Ildizmevalilar mohiyati, oziqaviy qimmatliligi, tarkibi, ekin maydoni hosildorligi. Qand lavlagini xalq xo'jaligidagi ahamiyati. tarixi, ekin maydoni, hosildorligi. Sistematikasi, biologik xususiyati, rivojlanish davrlari, tashqi muhitga bo'lgan talabi. Ekiladigan asosiy navlari. Biologik xususiyati (qand lavlagi va xashaki lavlagi, xashaki sabzi). Birinchi va ikkinchi yillardagi yetishtirish texnologiyasi.

Moyli ekinlar, kungaboqar – ahamiyati, biologiyasi yetishtirish texnologiyasi

Moyli ekinlar – xalq xo'jaligidagi ahamiyati, tarixi, ekin maydoni, hosildorligi. Kungaboqar, xalq xo'jaligidagi ahamiyati, Sistematikasi, biologik xususiyati, rivojlanish davrlari, ekiladigan asosiy navlari. Yetishtirish texnologiyasi.

Kanop, tamaki – ahamiyati, biologiyasi yetishtirish texnologiyasi

Kanop, tamaki – xalq xo'jaligidagi ahamiyati, tarixi, ekin maydoni, hosildorligi. Sistematikasi, biologik xususiyati, rivojlanish davrlari, tashqi muhitga bo'lgan talabi. Ekiladigan asosiy navlari. Kanopni yetishtirish texnologiyasi. Tamaki- ko'chat yetishtirish va dalada yetishtirish texnologiyasi. Hosilni yigish tartibi, saqlash.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar:

1. Atabayeva. X., Qodirxo‘jayev O. O‘simlikshunoslik – T. Yangi asr avlodi, 2006. 298 b.
2. Atabayeva X.N. va boshq. O‘simlikshunoslik. – T.: Mehnat, 2000. – 272 b.
3. Posipanov G.S. Rasteniyevodstvo. – M.: Kolos, 1997. 448 s.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Umarov Z.U., Atabayeva H.N., va boshqalar. Non rizqimiz. – T.: Navro‘z, 1994. – 26 b.
2. Gubanov Y.V., Ivanov N.N. Ozimaya pshenisa. – M.: Agropromizdat, 1988. – 289 s.
3. Atabayeva X. -Soya-Mil.ens.,2004, 6 b.t.-(monografiya)
4. Abdukarimov D.T., Xushvaqtoq S.X., Umurzoqov E.U. Tamakichilik. – T.: “Mehnat”, 1985.
5. Bo‘riyev X.Ch., Atabayeva X.N. Qand lavlagi yetishtirish texnologiyasi (tavsiiyanoma), 1999.
6. Vavilov N.I. Pyat kontinentov. – M.: “Misl”, 1987.
7. Vavilov P.P., Posipanov G.S. Boboviye kulturi i problemi rastitelnogo belka. – M.: “Rosselxozizdat”, 1982.
8. Zaurov D.E., Sborshikova S. Risovodstvo. – T.: “Mexnat”, 1989.
9. Omonov A.R. Bo‘riyev.X.Ch. Gafurova L.A., Nurbekov A. Bir boshq don. – T., 2004.
10. Elektron darslik, ilmiy monografiya, maqolalar, doktorlik, nomzodlik va magistrlik dissertasiyalari, ilmiy - amaliy anjumanlar, ma‘ruzalari to‘plamlari, gazeta va jurnallar, statistik ma‘lumotlar to‘plamlari, ma‘ruza matnlarining elektron versiyasi.
11. Internet saytlari: <http://www.icac.org/>
12. <http://www.referat.ru>
13. www.zin.ru
14. www.referat.ru
15. www.plantprotection.com

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETINING TAYANCH
DOKTORANTURA IXTISOSLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN
MUTAXASSISLIK FANLARDAN TALABGORLARNING BILIMLARINI
BAHOLASH MEZONI**

| | |
|---|------------|
| Sinov topshirish shakli | Yozma |
| Ajratilgan vaqt | 120 daqiqa |
| Savollar soni | 5 |
| Har bir savol uchun belgilangan ball | 20 |
| Eng yuqori ball | 100 |